

**Kamoliddin JAHONGIROV,**  
**O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,**  
**“Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi” kafedrası o‘qituvchisi,**  
**Azimbek XOLMATOV,**  
**O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi talabasi**

## **YAPONIYA TAJRIBASI ASOSIDA O‘ZBEKISTONDA QISHLOQ TURIZMINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI**

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada qishloq turizmining zamonaviy turizm industriyasidagi o‘rni, uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati hamda xalqaro tajriba asosida rivojlanish istiqbollari tahlil qilingan. Tadqiqotda UN Tourism va Jahon banki ma’lumotlari asosida global qishloq turizmi tendensiyalari yoritilib, Yaponiya “Green Tourism” va “Satoyama” modellari innovatsion yondashuv sifatida o‘rganilgan. Shuningdek, O‘zbekiston sharoitida qishloq turizmini rivojlantirish imkoniyatlari, mavjud statistik ko‘rsatkichlar hamda institutsional muammolar ilmiy jihatdan baholangan. Maqolada qishloq turizmini barqaror rivojlantirishda raqamli texnologiyalar, infratuzilma modernizatsiyasi va mahalliy hamjamiyat ishtirokining ahamiyati asoslab berilgan.

**Kalit so‘zlar:** qishloq turizmi, agroturizm, ekoturizm, turizm industriyasi, raqamli transformatsiya, green tourism, satoyama konsepsiyasi, turistik infratuzilma, turizm klasterlari, ziyorat turizmi, oilaviy mehmon uylari.

**Аннотация.** В данной статье анализируется роль сельского туризма в современной индустрии туризма, его социально-экономическое значение, а также перспективы развития на основе международного опыта. В исследовании освещаются глобальные тенденции развития сельского туризма на основе данных UN Tourism и Всемирного банка, а также рассматриваются японские модели “Green Tourism” и “Satoyama” как инновационные подходы. Кроме того, с научной точки зрения оцениваются возможности развития сельского туризма в условиях Узбекистана, существующие статистические показатели и институциональные проблемы. В статье также обосновывается важность цифровых технологий, модернизации инфраструктуры и участия местных сообществ в обеспечении устойчивого развития сельского туризма.

**Ключевые слова:** сельский туризм, агротуризм, экотуризм, индустрия туризма, цифровая трансформация, концепция “Green Tourism”, концепция “Satoyama”, туристическая инфраструктура, туристические кластеры, паломнический туризм, семейные гостевые дома.

**Abstract.** This article analyzes the role of rural tourism in the modern tourism industry, its socio-economic significance, and development prospects based on international experience. The study highlights global rural tourism trends using data from UN Tourism and the World Bank, and examines Japan’s “Green Tourism” and “Satoyama” models as innovative approaches. It also assesses the opportunities for developing rural tourism in Uzbekistan, existing statistical indicators, and institutional challenges from a scientific perspective. Furthermore, the article substantiates the importance of digital technologies, infrastructure modernization, and local community participation in ensuring the sustainable development of rural tourism.

**Keywords:** rural tourism, agrotourism, ecotourism, tourism industry, digital transformation, Green Tourism, Satoyama concept, tourism infrastructure, tourism clusters, religious (pilgrimage) tourism, family guesthouses.

Qishloq turizmi zamonaviy turizm industriyasining jadal rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, u shahar aholisining qishloq hududlari, an‘anaviy xo‘jalik faoliyati, mahalliy madaniyat va tabiiy resurslar bilan bevosita tanishishini

ta'minlaydi. Xalqaro tajribaga ko'ra, qishloq turizmi nafaqat rekreatsion ehtiyojlarni qondiruvchi segment sifatida, balki qishloq hududlarining barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi muhim mexanizm sifatida ham e'tirof etiladi.

So'nggi yillarda qishloq turizmi ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylangan bo'lib, uning barqaror rivojlanish, qishloq hududlarini revitalizatsiya qilish hamda mahalliy aholining iqtisodiy faolligini oshirishdagi o'rni keng o'rganilmoqda. Jumladan, ushbu yo'nalishda Liu, Chiang va Ko qishloq turizmining mahalliy hamjamiyat rivojiga qo'shgan hissasini tahlil qilib, turizmning qishloq iqtisodiyotini diversifikatsiya qilishdagi rolini alohida ta'kidlaydi. Ularning tadqiqotlariga ko'ra, qishloq turizmi nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki ijtimoiy kapitalni kuchaytiradi hamda mahalliy boshqaruv tizimlarini rivojlantiradi<sup>256</sup>.

Setiawan Priatmoko va hammualliflar qishloq turizmini murakkab iqtisodiy tizim sifatida tahlil qilib, uning rivojlanishi ko'plab omillarga – infratuzilma, raqamli texnologiyalar, boshqaruv modeli va mahalliy ishtirok darajasiga bog'liqligini ta'kidlaydi. Mualliflar qishloq turizmini barqaror rivojlantirish uchun integratsiyalashgan boshqaruv tizimi zarurligini asoslab beradi<sup>257</sup>.

Mahalliy olimlardan Agzamova N.G. tomonidan olib borilgan tadqiqotda qishloq turizmi infratuzilmasini rivojlantirishning strategik yo'nalishlari o'rganilgan. Muallifga ko'ra, qishloq turizmining barqaror rivojlanishi uchun davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kuchaytirish, transport va servis infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda investitsion muhitni yaxshilash zarur<sup>258</sup>.

Sh.Yakubjanova va M.Isabekova qishloq hududlarida agroturizmning hududiy rivojlanishdagi o'rnini tahlil qilib, ushbu yo'nalishning asosiy muammolari sifatida infratuzilma yetishmovchiligi, xizmat ko'rsatish sifatining pastligi va marketing strategiyalarining zaifligini ko'rsatgan. Shu bilan birga, ular agroturizmni rivojlantirish orqali hududiy iqtisodiy faollikni oshirish mumkinligini qayd etgan<sup>259</sup>.

UN Tourism ma'lumotlariga ko'ra, global turizm bozorida qishloq va ekologik turizm segmenti so'nggi o'n yillikda o'rtacha 10-12% yillik o'sish sur'atini namoyish etmoqda. Fransiya, Italiya, Ispaniya kabi Yevropa mamlakatlarida qishloq turizmi umumiy turizm daromadlarining 15–25% ini tashkil etadi<sup>260</sup>.

Qishloq turizmining iqtisodiy samaradorligi, avvalo, mahalliy aholi uchun yangi ish o'rinlari yaratish va daromad manbalarini diversifikatsiya qilish bilan bog'liqdir. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, qishloq turizmi rivojlangan hududlarda bandlik darajasi o'rtacha 8–12 % ga oshishi, kichik biznes subyektlari sonining esa 20–30% ga ko'payishi kuzatiladi<sup>261</sup>.

Shu nuqtayi nazardan, xalqaro tajribada qishloq turizmini rivojlantirishning

---

<sup>256</sup> Liu Y.-L., Chiang J.-T., Ko P.-F. *The benefits of tourism for rural community development*. Humanities and Social Sciences Communications, 2023. DOI: 10.1057/s41599-023-01610-4

<sup>257</sup> Priatmoko S., Kabil M., Akaak A. et al. *Understanding the Complexity of Rural Tourism Business: Scholarly Perspective*. Sustainability, 2023. DOI: 10.3390/su15021193

<sup>258</sup> Agzamova N.G. Opportunities for Developing Rural Tourism Infrastructure in Uzbekistan // *Journal of Applied Science and Social Science*. – 2025. – Vol. 1, Issue 5. – P. 50–56.

<sup>259</sup> Yakubjanova Sh., Isabekova M. Distinctive Features of the Agrotourism Development in the Region // *Journal of Social Sciences and Humanities Research Fundamentals*. – 2025. – Vol. 5, Issue 5. – P. 36–41. – DOI: 10.55640/jsshfrf-05-05-09.

<sup>260</sup> UNTourism. *Tourism and Rural Development Report*. Madrid: World Tourism Organization, 2024

<sup>261</sup> World Bank. *Rural Development and Employment Report*. Washington, D.C.: World Bank Group, 2023.

samarali modellari sifatida Yaponiya tajribasi alohida ahamiyat kasb etadi. Yaponiya 1990-yillardan boshlab “Green Tourism” (yashil turizm) konsepsiyasini joriy etish orqali qishloq xo‘jaligi hududlarini turistik destinatsiyalarga aylantirishda sezilarli natijalarga erishgan. Ushbu model doirasida fermer xo‘jaliklari nafaqat agrar mahsulot ishlab chiqaruvchi subyekt sifatida, balki turistik xizmatlar ko‘rsatuvchi diversifikatsiyalashgan iqtisodiy birlik sifatida faoliyat yurita boshladi. Natijada qishloq hududlarida qo‘shimcha daromad manbalari shakllanib, mahalliy aholi bandligi va hududiy iqtisodiy faollik darajasi sezilarli darajada oshdi.

Yaponiyada agroturizm bozori 2024-yilda taxminan 4,32 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lib, 2033-yilga borib 14,20 milliard dollarga yetishi va yillik o‘shish sur‘ati ya’ni CAGR 12,64% bo‘lishi kutilmoqda. Bu o‘shish asosan davlatning qishloq jonlantirish dasturlari, farm stay va tajriba dasturlari bilan bog‘liq<sup>262</sup>.

Yaponiya Qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik vazirligi (MAFF) 1993-yildan “Green Tourism” dasturini amalga oshirmoqda<sup>263</sup>. Undagi asosiy elementlar quyidagilar:

– fermalarda qolish. 2025-yilga qadar yiliga 700 ming mehmon tunini ta‘minlash maqsadi qo‘yilgan.

– mahalliy jamoa kuchi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mahalliy aholi faolligi qishloq turizmi rivojiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi va daromadni oshiradi.

– davlat qo‘llab-quvvatlashi. “Furusato Nozei” soliq imtiyozlari, “Satoyama” ya’ni barqaror qishloq xo‘jaligi va o‘rmonlarni saqlash tashabbusi orqali turizmni rag‘batlantirish.

Yuqoridagilar asosida ba’zi qishloqlarda sayyohlar soni 2016-yildagi 1200 nafardan 2025-yilda 12000 nafarga oshgan, fermalardan olingan daromad o‘rtacha 900000 yen taxminan 6000 AQSh dollarini tashkil etgan<sup>264</sup>.

Yaponiya tajribasining asosiy muvaffaqiyati – tajriba asosidagi turizm ya’ni “hands-on activities” sigir sog‘ish, sabzavot yetishtirish, an’anaviy hunarmandchilik va barqarorlikni ta‘minlashdir. Bu shaharliklarga haqiqiy qishloq hayotini his qilish imkonini beradi va qishloq aholisiga qo‘shimcha daromad manbai yaratadi.

2024-yilda mamlakatga 7 million 957 ming turizm maqsadidagi sayohatchilar tashrif buyurgan. Bu ko‘rsatkich 2023-yilga nisbatan 20,1% ga o‘sgan. 2025-yilda esa xorijiy sayyohlar soni 11 million 700 mingga yetgan. Shuningdek ichki turizm ham kuchaygan. 2025-yilda “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!” dasturi doirasida 23 million dan ortiq ichki sayohatlar amalga oshirilgan<sup>265</sup>.

Bevosita qishloq turizmi doirasida esa:

– qishloq hududlarida turizm xizmatlaridan tushgan daromad 2020-2024-yillarda 45,6% ga o‘sgan;

– agro-turistik obyektlar soni 75 tadan 210 taga yetgan;

<sup>262</sup> <https://www.imarcgroup.com/japan-agritourism-market>

<sup>263</sup> <https://www.travelvoice.jp/english/japanese-agriculture-ministry-launches-farm-stay-promotion-plan-with-a-goal-of-7-million-guest-nights-in-2025>

<sup>264</sup> <https://www.imarcgroup.com/japan-agritourism-market>

<sup>265</sup> O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish bo‘yicha yillik hisobot (2024–2025). – Toshkent: Turizm qo‘mitasi, 2025. – URL: <https://www.uzbektourism.uz>

– qishloq turizmidan olingan daromad 34,2 mlrd. soʻmdan 49,8 mlrd. soʻmga oshgan;

– ish oʻrinlari soni 2800 tadan 5100 taga yetgan<sup>266</sup>.

Oʻzbekiston aholisining taxminan 50% qishloq joylarda yashaydi, qishloq xoʻjaligi YIMning 18% ini tashkil etadi va 15 million ga yaqin odamni ish bilan taʼminlaydi<sup>267</sup>. Bu qishloq turizmini rivojlantirish uchun katta inson resursi va tabiiy bazadir.

Oʻzbekistonda qishloq turizmini Yaponiya tajribasi asosida rivojlantirishning imkoniyatlari:

Yaponiyadagi kabi “qishloq uylari” ni rivojlantirish. Oʻzbekistonda bugungi kunda 3458 ta oilaviy mehmon uylari mavjud. Navoiy viloyatidagi Sentob qishlogʻi – UNTourismning “Eng yaxshi turizm qishlogʻi” mukofoti sohibi boʻlgan<sup>268</sup>. Shunigdek, Fargʻona vodiysida paxta, meva terish, milliy taomlar tayyorlash tajribalarini taklif etish mumkin. Bu xorijiy sayyohlar ayniqsa, Yevropa va Osiyo mamlakatlaridan keladigan sayyohlar uchun jozibador boʻladi.

Yaponiyada muvaffaqiyatning asosiy omili – mahalliy aholi faolligi. Oʻzbekistonda “Turizm mahallasi” va “Turizm qishlogʻi” dasturlari orqali yoshlarni gid, hunarmand va xizmat koʻrsatuvchi sifatida tayyorlash kerak. Bu ishsizlikni kamaytiradi va daromadni 10-20% ga oshirishi mumkin.

Xalqaro tajribada qishloq hududlarini barqaror rivojlantirish va ekologik muhofaza tamoyillarini turizm bilan integratsiya qilish boʻyicha Yaponiyaning “Satoyama” konsepsiyasi alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv tabiat va inson faoliyati oʻrtasidagi muvozanatni saqlashga qaratilgan boʻlib, qishloq landshaftlarini antropogen bosimdan himoya qilish bilan birga, ularni turistik resurs sifatida oqilona foydalanishni nazarda tutadi. Natijada ekologik barqarorlik, madaniy merosni saqlash va iqtisodiy foyda oʻzaro uygʻunlashgan kompleks tizim shakllanadi.

Oʻzbekiston sharoitida ham “Satoyama” modeliga oʻxshash yondashuvlarni joriy etish uchun obyektiv shart-sharoitlar mavjud. Xususan, mamlakatning togʻli, choʻl va vodiy hududlari qishloq turizmi uchun yuqori rekreatsion salohiyatga ega. Masalan, Angidon qishlogʻi kabi hududlarda 15 dan ortiq oilaviy mehmon uylari faoliyat yuritib, bu hududda folklor, anʼanaviy turmush tarzi hamda agroturizm yoʻnalishlarining shakllanayotganini koʻrsatadi. Bunday hududlar mahalliy darajada turistik klasterlarni rivojlantirish uchun boshlangʻich tayanch nuqta sifatida xizmat qilishi mumkin.

Biroq qishloq turizmini barqaror rivojlantirish jarayonida bir qator tizimli muammolar mavjudligi ham qayd etiladi. Jumladan, infratuzilma, raqamli hamda malakali kadrlar yetishmovchiligi sohaning rivojlanishiga toʻsqinlik qiluvchi asosiy omillar sifatida namoyon boʻlmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun kompleks davlat siyosati va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish talab etiladi.

<sup>266</sup> Matyakubov, U. & Defrancesco, E. (2018). Role of Agritourism in Sustainable Rural Development in Uzbekistan: Insights from the Italian Experience. “International Journal of Economics, Commerce and Management”, VI(3). <https://ijecm.co.uk/wp-content/uploads/2018/03/636.pdf>

<sup>267</sup> Matyakubov, U. & Defrancesco, E. (2018). Role of Agritourism in Sustainable Rural Development in Uzbekistan: Insights from the Italian Experience. “International Journal of Economics, Commerce and Management”, VI(3). <https://ijecm.co.uk/wp-content/uploads/2018/03/636.pdf>

<sup>268</sup> <https://www.untourism.int/news/unwto-names-its-best-tourism-villages-2023>

Shuningdek, qishloq turizmining mavsumiylik xarakteri uning iqtisodiy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ushbu muammoni yumshatish maqsadida yil davomida ishlaydigan turistik dasturlarni ishlab chiqish, qishki turizm yo'nalishlarini rivojlantirish hamda ziyorat turizmi bilan integratsiyalashgan kombinatsiyalashgan turistik mahsulotlarni shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday yondashuv turistik oqimning mavsumiy tebranishlarini kamaytirib, daromadlarning barqarorligini ta'minlaydi.

Zamonaviy raqamli transformatsiya sharoitida qishloq turizmini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida onlayn bron qilish tizimlarini keng joriy etish hamda turistik xizmatlarni raqamlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, kengaytirilgan reallik (AR) va virtual reallik (VR) texnologiyalarini joriy etish orqali qishloq turistik obyektlarini global bozorda ilgari surish, ularning raqobatbardoshligini oshirish imkoniyati yuzaga keladi.

Xulosa qilib aytganda, Yaponiyaning "Green Tourism" va "Satoyama" tajribalari shuni ko'rsatadiki, qishloq turizmining muvaffaqiyatli rivojlanishi davlat siyosati, mahalliy hamjamiyat ishtiroki va innovatsion yondashuvlarning uyg'unlashuviga bevosita bog'liqdir. Ushbu model asosida qishloq hududlarida iqtisodiy faollikni oshirish, ijtimoiy infratuzilmani yaxshilash hamda ekologik barqarorlikni ta'minlash mumkin.

O'zbekistonning boy agrar resurslari, tabiiy landshaftlari va madaniy merosi ushbu tajribalarni milliy sharoitga moslashtirish uchun qulay asos yaratadi. 2025-yilgi turizm ko'rsatkichlari va mavjud davlat dasturlari tahlili shuni ko'rsatadiki, yaqin istiqbolda qishloq turizmi mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biriga aylanishi va hududiy rivojlanishda muhim drayver vazifasini bajarishi ehtimoli yuqori hisoblanadi.